

О‘QUVCHILARNI HUNARMANDCHILIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

*Xudayberdiev P., Isoqov Sh.. - o‘qituvchilar
A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni hunarmandchilik bo‘yicha ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoning ketma-ketligi masalasi ustida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yaratuvchanlik, qobiliyat, rivojlantirish jarayoni, hunarmandchilik, ijodkorlik, shakllantirish, faraz qilish.

Аннотация: В данной статье размышляется над вопросом о последовательности процесса развития творческих способностей учащихся в ремеслах.

Ключевые слова: Творчество, способность, процесс развития, мастерство, творчество, формирование, гипотеза.

Hunarmandchilik, insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyag rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachi likdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisos liklarga ajraldi. Zamonaviy hunarmandchilik taraqqiyoti—o‘sib kelayotgan yosh avlod ni tarbiyalashdagi maqsadi, vazifasi va mazmunini bevosita qamrab oladigan ijodkorlik faoliyati bilan tavsiflanadi. Buni fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarning uyg‘unlashib ketishi natijasida fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi, mehnat turlari va mazmunining o‘zgarishi bilan bog‘liq unda yaratuvchan ijodkorlik ning ahamiyati oshib ketganligi bilan asoslash o‘rinli. Bu esa, yoshlarning yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratishni takozo etadi.

Ushbu maqolada o‘quvchilarni hunarmandchilik bo‘yicha ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoning ketma-ketligi ko‘rib chiqiladi.

O‘quvchilarni hunarmandchilik bo‘yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyat lari ham xuddi boshqa pedagogik faoliyatlar singari falsafaning dialektik va tarixiy materializm qonunlariga asoslangan o‘zining maxsus yo‘nalishlariga ega va bu yo‘nalishga xususan quyidagilar kiradi]:

-ijodkorlikda izlanish, intilish, tekshirish uslublari ilg‘or pedagoglar tajribasini o‘rganish va umumlashtirish masalalari tahlili;

-ijodkorlik masalalarini echishning pedagogik asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

-o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid yaratuvchan ijodkorlik qobil yatini rivojlantirishning ob‘ektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash;

- aytilganlar asosida istiqbolli rejani belgilab olish va uni amalga oshirish.

Bu muhim masalalar o'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik faoliyatga tayyorlash jarayonini ilmiy tashkil etish asosida hal etiladi va o'ziga xos ikki jihatga ega:

Birinchi jihati - hunarmandchilikdagi yaratuvchan tavsifga ega bo'lgan nazariy va amaliy muammoli masalalarni o'qituvchi tomonidan yoritilishi va o'quvchilar tomonidan uzlashtirilishini nazarda tutadi.

Ikkinchi jihati-o'quvchilarning rahbar tomonidan berilgan ishni hal qilishga oid bilimlardan unumli foydalanadigan ijodkorlik qobiliyatlarini shakl landirish va rivojlantirishdir. Jumladan, hunarmandchilik bo'yicha o'quvch dastu rini tahlil qilish uning hozirgi zamon milliy hunarmandchiligi bilan texno logik va tashkiliy tav sifdagi yaratuvchan ijodkorlikka asoslangan hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha aloqa bog'lash uchun ko'plab imkoniyatlar mavjudligi aniq landi. Ammo bu aloqalarni amalga oshirish esa ularni ilmiy asosda, didaktik jihat dan puxta o'ylab yondoshishni taqozo etadi. Bu yondoshishga: vazifani nazariy o'rganish, kuzatish, maqsadni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tahlil qilish, umumlashtirish va amalda uni tayyorlash ko'nikmalari kiradi.

Yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo'lgani uchun bu yo'nalishdagi ishlarga har bir fan o'qituvchisi o'z faoliyatining birinchi kunidanoq katta mas'uliyat bilan qarashi lozim bo'ladi. Milliy hunarmandchilikda o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish o'ziga asosiy uchta turdagi ijodkorlik masalasini qamrab oladi.

1. Hunarmandchilikda konstruksiya uyg'unligi masalalari. Bu masala: a) buyumning mustahkamligi, turg'unligi va ishonchliligini oshirishni; b) zararli ta'sir yoki hodisani bartaraf qilish usulini; v) buyumni tayyorlash bilan bog'liq uning shakli eng muvofiq bo'lishini, ularni mustahkamlash, materiallarni to'g'ri tanlash va zarur bo'lganda boshqasiga almashtirish kabi ishlarni to'g'ri aniqlashni; g) buyumni ishlatishga qulay, estetik yuqori va yengil bo'lishi uchun o'zgartirishlar kiritishlarni nazarda tutadi.

2. Texnologik masalalar. Bu masala: a) belgilab olish va nazorat qilishning eng muvofiq usullarini tanlashni; b) qiyin operatsiyalarni bajarishni yengillashtirishni, ortiqcha zo'riqish, vaqt va materialni tejab ishlatishga imkon beruvchi texnologiyalarni tanlashni; v) o'zining toliqmasdan ishlashini ta'minlovchi texnologiyalarni tanlashni; g) buyumni tanlash sifatini yaxshilashni ta'minlovchi operatsiyalar bajarish texnologiyalarini tanlashlarni ko'zda tutadi.

3. Tashkiliy masalalar. Bu masalalar: a) mehnatni muvofiq tashkil qilishni; b) ish joyini muvofiq rejalashtirishni; v) qurol va moslamalardan texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda foydalanishni; g) ishni bajarish usullarini takomillashtirishlarni nazarda tutadi.

Mazkur soʻz yuritilgan oʻquvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari oʻz navbatida ularni amalga oshirishning oʻziga xos rejasini ishlab chiqishni talab qiladi. Tajribalarning koʻrsatishicha igitni toʻgʻri rejalashtirishda quyidagi omillarni eʼtiborga olish lozim boʻladi:

1. Zarur moddiy-texnik baza bilan taʼminlash (ish joyi, kerakli asbob-uskunalar, koʻrgazmali vositalar).

2. Oʻquvchilarning qiziqishi, moyilligi va qobiliyatiga koʻra toʻgaraklarga tanlab olish;

3. Toʻgarakda mashgʻulot oʻtkazishning shakllari va usullarini muvofiq tashkil qilish (guruhiy, zvenoli, individual, soʻzlab berish, bayon qilish, namoyish qilish, texnik masala yechish, ijodkorlik oʻyinlari, trening, izlanish strategiyasi va hokazo);

4. Koʻrgazma, koʻrik-tanlovlar tashkil qilish va yakun yasash.

Ijodkorlik koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirish deganda oʻquvchilarning hunarmandchilik boʻyicha berilgan ijodkorlik masalalarini echishdagi amaliy vazifalarni bajarish bilan bogʻliq ketma-ketliklardan oqilona foydalanishga oʻrgatishni tushiniladi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olganda bu vazifalarni bajarishning quyidagi ketma-ketligi maqsadga muvofiq boʻlib, uni bajarish bosqichlariga:

1. Topshiriq (ishning maqsadiga qoʻyilgan talabni oydinlashtiradi);

2. Muammoni qoʻyish;

3. Taklif qilinayotgan gʻoya farazni asoslash. Uni tekshirib koʻrish boʻyicha taxminiy tajribalar oʻtkazish;

4. Taklif qilingan variantlarni muhokama qilish va eng muvofiqʻini tanlash, uning prinsipial chizmasini ishlab chiqish;

5. Buyum, asboblarni tayyorlash;

6. Sinab koʻrish va muhokamadan oʻtkazish;

7. Nuqsonlarni bartaraf qilish va tayyorlash;

8. Undan amalda foydalanishga tatbiq etish;

9. Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishlar kiradi.

Bu jarayon faoliyatida oʻquvchilar hunarmandchilik boʻyicha oʻz topshiriqʻini ishlab chiqish va bajarishda amaliy yangilik tavsifga ega boʻlishiga alohida eʼtiborni qaratilishi muhim hisoblanadi.

Mazkur aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki oʻquvchilarning hunarmandchilikka oid ijodkorligi ham boshqa har qanday fanlar faoliyati singari oʻz predmeti natijalariga ega, yaʼni masalan, oʻquvchi u yoki bu hunarmandchilik buyumiga oid echimni ijobiy hal qilib, maʼlum uy-roʻzgʻor yoki oʻquv-laboratoriya jarayonidagi biron buyum, moslamani takomillashtirish natijasiga erishishi mumkin. Bu esa shubhasiz, oʻquvchilar ijodkorligi predmeti natijalarining, ishlab chiqarish

jarayoniga o'xshashligini va uni muvofiq boshqarish tizimi bo'lishi zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmetova A.S., Ismatullaeva M.Z. Xalq xunarmandchiligi.-T.: «Iqtisod-Moliya» 2008.-292 b.
2. Bulatov S.S. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati". O'quv qo'llanma.-T.: "Texnologiya", 1991y., 450b.
3. Muqimova F.X., Tog'ayev X., Yusupov K. Ya. O'quvchilarni texnologiya fanida milliy hunarmandchilikka oid kreativlik qobliyatlarini rivojlantirish ning o'ziga xos jihatlari. Rspublika onlayin ilmiy-texnikaviy anjumani materiallari to'plami. Qo'qon DPI, 2020 y., 18-noyabr, 28-31 b.
4. R. T. Umarov va boshqalar. "Texnil ijodkorlik va dizayn" fanidan laboratoiya –amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga oid uslubiy ko'rsatma. Sangzor-2005, 44 b.